# Qishloq xo‘jaligi

**2018 yil I chorak**

2018 yilning yanvar`-martda ishlab chiqarilgan (ko`rsatilgan xizmatlar) umumiy hajmi 116,8 mlrd. so`mni yoki 2017 yilning shu davriga nisbatan 02,0 foizni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda ko`rsatilgan xizmatlar hajmi 112,5 mlrd. so`mni (101,4 foiz), o`rmonchilik xo`jaliklarida 1,6 mlrd. so`mni (101,7 foiz), baliqchilik xo`jaliklarida 2,7 mlrd. so`mni (130,4 foiz) tashkil qildi.

**Qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining xo`jaliklar toifalari bo`yicha taqsimlanishi**

*(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)*




**Hosil yig`imi**. 2018 yilning yanvar`-mart oylarida 241 tonna sabzavot (4,3 foizga ko`p) yig`ib olindi.

**2018 yilning yanvar`-martida xo`jalik toifalari bo`yicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| | Fermer xo`jaliklari | | Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo`jaliklari | | Qishloq xo`jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | *tonna* | *o`sish sur`ati, foizda* | *tonna* | *o`sish sur`ati, foizda* | *tonna* | *o`sish sur`ati, foizda* |
| Sabzavotlar | 3 | 75,0 | 225 | 103,2 | 13 | 144,4 |

**Chorvachilik.** 2018 yilning 1 aprel` holatiga o`tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 109,4 foizga (jami 1057,1 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 104,0 foizga (303,8 ming bosh), qo`y va echkilar 107,3 foizga (1043,4 ming bosh), otlar 107,5 foizga (22207 bosh), parrandalar 116,9 foizga (3,9 mln. bosh) ko`paydi.

Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go`sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o`sishi asosan dehqon va fermer xo`jaliklari hisobiga bo`lib, go`sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 99,0 foizni, sut mahsuloti 98,9 va tuxum ishlab chiqarishda 99,1 foizni tashkil etdi.

**2018 yil 1 aprel` holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni**

Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo`jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 95,0 foizni, fermer xo`jaliklarida esa 4,3 foizni, shu jumladan, sigirlar mos ravishda 94,4 va 4,8 foizni, qo`y va echkilar 90,0 va 7,3 foizni, otlar 83,8 va 14,1 foizni, parrandalar 90,3 va 6,0 foizni tashkil etdi.

**2018 yil 1 aprel` holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni**




---

2018 yilning yanvar`-martida barcha toifadagi xo`jaliklarda tirik vazn hisobida 14,2 ming tonna go`sht (2017 yilning yanvar`-martiga nisbatan 1,3 foizga ko`p), 46,1 ming tonna sut (2,2 foizga ko`p), 70,7 mln. dona tuxum 2,6 foizga ko`p) ishlab chiqarildi.

**2018 yil yanvar`-mart oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari**

**Fermer xo`jaliklari**. 2018 yilning yanvar`-martida fermer xojaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo`jaligi mahsulotlari hajmi 4,9 mlrd. so`mni tashkil qildi. Qishloq xo`jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo`jaliklarining ulushi 4,5 foizni tashkil etdi.

2018 yilning 1 aprel` holatiga fermer xo`jaliklarida 45,0 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan 14,6 ming bosh sigir, 76,1 ming bosh qo`y va echkilar, 3135 bosh ot, 234,3 ming bosh parrandalar mavjud.

**2018 yil yanvar`-mart holatiga fermer xo`jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari**

*Ko'rib chiqildi:*

Izlash

- 🖂

Vazirlar Kengashi Statistik va tahliliy ma'lumotlar Vazirliklar va idoralar Shahar va tuman hokimliklari Hujjatlar Respublika mehmonlariga Elektron hukumat Interaktiv davlat xizmatlar